QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2024 - yil 13 - aprel 120-4-58-Q/24 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6-, 25- moddalariga, “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunning 4-, 16-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida”gi 348-sonli Qonunining 6-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172- sonli qaroriga asosan tuman hududida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda shahar markazida tirbandlikni oldini olish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan keng ko'lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta'minlash maqsadida, tuman Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2024-yil 9-fevraldagi 32-sonli hamda 27-fevraldagi 46-sonli aloqa xatlarini ko'rib chiqib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qamashi tuman Yo‘llardan foydalanish davlat muassasasining 2024-yil 9-fevraldagi 32-sonli hamda 27-fevraldagi 46-sonli aloqa xatlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili 1-ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l

belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Qamashi tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i N.Rahimov, tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i A.Shurov va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori Sh.Almardonov tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati (N.Rasulov) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb saytiga hamda boshqa OAVlarda keng yoritishi tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Haydarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Usmonov**

Qamashi tuman hokimining
2024-yil 13-apreldagi
120-4-58-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi	Yo‘l belgisini soni
1.	4P 79 “Qarshi-Chim-Shahrisabz”avtomobil yo‘lining 40-41 kilometrlar oralig'ida yo'lning o'ng va chap tomonida,	1.24 “Mol haydab o‘tish”	2 dona
2	4K340 “Qamashi-Chimqo‘rg‘on” avtomobil yo‘lining 6,1-6,25 km oralig‘ida	3.27 “To‘xtash taqiqlangan”	2 dona